

# ALISHER NAVOIYNING “MEZON UL-AVZON” VA AHMAD TAROZIYNING “FUNUN UL-BALOG’A” ASARLARI QIYOSIY TAHLILI

Islamov Fazliddin Isomiddinovich

Chirchiq davlat pedagogika

universteti Gumanitar fanlar fakulteti

o‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi 4-bosqich talabasi

[islamovfazliddin7@gmail.com](mailto:islamovfazliddin7@gmail.com)

**Annotatsiya.** Mazkur maqola aruz vazniga oid turkey tilda yaratilgan A.Taroziyning “Funun ulbalog’a” va A.Navoiyning “Mezon ul-avzon” asarlarini qiyosiy tahliliga bag’ishlangan. Tahlil davomida aruzga oid ikki risolani bir-biridan farqli va o’xshash jihatlarini qiyosan o’rganilgan Ikki asarning o’ziga xos jihatlariga alohida urg’u berilgan.

**Kalit so’zlar:** aruz, radif, qofiya, doira, vazn, zihof, juzv, she’riy san’atlar .

**Abstract.** This article is written in Turkish about Aruz weight. It is dedicated to the comparative analysis of A. Tarazi's "Funun Ulbaloga" and A. Navoi's "Mezon ul-Avzon". During the analysis, we will compare the differences and similarities of the two treatises on marriage. We emphasize the special aspects of the two works.

**Key words:** aruz, radif, rhyme, circle, weight, zihof, juzv, poetic arts.

Barchamizga ma’lumki, aruz she’riy tizim sifatida arab adabiyotida paydo bo‘lgan. Manbalarda aruz nazariyasi asoschisi sifatida Xalil ibn Ahmad ko‘rsatiladi. Uning nazariyasi keyinchalik aruz tizimi tarqalgan boshqa xalqlar uchun ham asos bo‘lib xizmat qilgan. O‘rta asrlarga kelib Movorounnahrda ham arab va fors aruzi zamirida turkiy aruzshunoslik maktablari yaralgan. Aruz temuriylar davrida o‘z cho‘qqisiga erishganligini o‘sha davrda yaratilgan aruz haqidagi turkiy risolalar,

jumladan Shayx Ahmad Taroziyining “Funun ul-baloga”, Alisher Navoiyning “Mezon ul-avzon”, Abdurahmon Jomiyning “Risolai aruz”, Sayfiy Buxoriyning “Aruzi Sayfiy” va Boburning “Muxtasar” kabilar isbot bo’ladi. Ahmat Taroziy “Funun ul-baloga” asari 1436-1437-yillarda yozilgan bo’lsa A.Navoiyning “Mezon ul-avzon” asari 1492-1493-yillarda yozilgan. Navoiy “Mezon ulavzon” asarini turkiy tildagi aruzga oid ilk asar deb aytadi. Bu holdan biz Navoiy “Funun ul-baloga” asarini ko’rmagan yoki eshitmagan deya olishimiz mumkin. Aruzga oid ikki risolaning kirish qismiga keladigan bo’lsak “Funun ul-baloga” asari kirish qismidan tashqari besh qismdan iboratligini, “Mezon ul avzon” asari esa uch qismdan :*muqaddima, asosiy qism, xotimadan* tashkil topganini bilishimiz mumkin. Har ikki risolada ham kirish qismi Allohga hamd, payg’ambarga nat bilan boshlangan. Asarlardagi aruzga oid rukn tushunchasini oladigan bo’lsak, “Mezon ul-avzon” asarida sakkiz asliy ruknni sanab o’tiladi. A.Taroziy ham “Funun ul-baloga asarida”... *bu olti aslidin sakkiz arkon paydo bo’lurkim,ani aruz ahli ajzoyi afoyil va tafoyil o’qurlar .Bu rukni gohi juzv derlar,gohi rukun.Ul sakkiz rukning fexresti budur deb quyidagilarni keltiradi:faulun,foilun, mafoilun, foilotun,mustafilun, mutafoilun ,mafoilotun va maf’ulotu* “deb ularni sanab o’tadi Navoiy besh asl rukn o’zgarishini –zihof deb ataydi va besh asl ruknda jami 45 zihof va 60 furu keltiradi. Taroziy zihofni shundat ta’riflaydi”*zihof uldurkim, solimni bir illat va jihat birla o’ksutub yo o’lturub ,tag’ir va tabdil qilur*”. A.Taroziy “Funun ulbalog”a “asarida qofiya va radifga bag’ishlangan uchinchi qismida arab, ajam,va boshqa xalqlarning qofiya haqidagi tushunchalarini keltiradi va ularga qarshi fikr bildirmaydi. Aruzga oid bo’lgan doiralar haqida gap ketganda , A.Navoiy “Mezon ul-avzon” asarida yettita doira keltiradi. A.Taroziy esa doiralar keltirmaydi”. alardin hech qanday foyda yo’q “deydi. A.Taroziygacha aruz bahrlari 20 ga yaqin bo’lsa, istedodli shoir aruz bahrlari sonini 40 ga yetkazgan “Funun ul-baloga” asaridagi vaznlar soni 366 tagacha yetkazilgan va ularga misollar keltirib izohlab berilgan. Bu ikki “Funun ul-baloga” va “Mezon ul avzon” asarlari turkiy aruzshunoslikka katta hissa qo’shgan ijodkorlar asarlaridir. Bu asarlar hozirgi kunda ham aruzshunoslardan uchun katta bir qo’llanma sifatida xizmat qilmoqda. Taroziy

bahrlarni dastavval ikki qismga ajratadi: 1) muttafiq ul-ajzo – faqatgina bir asliy rukndan, ya‘ni muallif tili bilan aytganda, arkoni solimadan tashkil topgan bahrilar. Masalan, fauvlun rukni baytda sakkiz marta takrorlanib kelsa, bu aynan muttafiq ul-ajzoga kiruvchi mutaqorib bahridir. Shayx Ahmad Taroziy mazkur qismga sakkizta bahrni kiritadi:

1. *Mutaqorib* : *Fauvlun fauvlun fauvlun fauvlun* ;  $V--/V--/V--/V--$

2. *Mutadorik* : *Foilun foilun foilun foilun* ;  $-V-/V-/V-/V-$

3. *Hazaj* : *Mafoiylun mafoiylun mafoiylun mafoiylun* ;  $V---/V---/V---$   
 $/V---$

4. *Ramal* : *Foilotun foilotun foilotun foilotun* ;  $-V--/-V--/-V--/-V-$

– 5. *Rajaz* : *Mustaf‘ilun mustaf‘ilun mustaf‘ilun mustaf‘ilun* ;  $--V-/---V-/---V-$   
 $--V-$

6. *Vofir* : *Mafoilatun mafoilatun mafoilatun mafoilatun* ;  $V-VV-/V-VV-/$   
 $V-VV-/V-V-$

7. *Komil* : *Mutafoilun mutafoilun mutafoilun mutafoilun* ;  $VV-V-/VV-V-/$   
 $VV-V-/VV-V-$

8. *Saqil* : *Maf‘uvlotu maf‘uvlotu maf‘uvlotu maf‘uvlotu* ;  $--V/----V/----$   
 $V/----V$

Bundan ko’rinadiki, ikki solim rukn o’zaro almashib, yangi ruknni hosil qilmoqda. Shu o’rinda shayx Ahmad Taroziy bir nuqtaga alohida urg’u beradi: *—Va shart uldurkim, ul ikki juzvnikim, tarkib etib, bahr qilurlar, bir-birining uxti (opa-singil – D.YU.) kerak. Agar begona bo’lsa, bu toifaning qoshinda ravo ermas. Bu o’rinda shayx Ahmad Taroziy e’tibor qaratgan nuqta shuki, ikki solim ruknni almashtirib qo’llash natijasida muxtalif ul-ajzoga kiruvchi biror bahr hosil qilinsa, undan keyingi bahr uning aksini takrorlashi lozim, agar bu shart ado etilmasa, u bahr sifatida tan olinmaydi.* Buni muallif muxtalif ul-ajzoning birinchi va ikkinchi bahri sifatida

keltirgan bahrlarning ruknlariga diqqat qilish orqali yanada yaxshiroq tushunib olish mumkin. Shayx Ahmad Taroziy keltirayotgan mazkur she'riy vazn qonuniyati undan keyin bitilgan turkiy aruzshunoslik manbalari hisoblangan Alisher Navoiyning —"Mezon ul-avzon" asarida uchramaydi (Alisher Navoiy risolasida an'anaviy 19 bahrga to'xtab o'tilgan) . Bu esa —"Funun ul-balogs'a" muallifining aruzshunoslik masalalariga o'ziga xos tarzda yondashganligini ko'rsatadi. Shundan so'ng muallif bahrlarni uch turga ajratib, ularni quyidagicha ta'riflaydi

1) a'lo bahrlar sakkiz juzvli (ruknlili) bahrlar bo'lib, ular musamman ul- arkon deb ataladi;

2) avsat bahrlar olti juzvli (ruknlili) bahrlar bo'lib, ular musaddas ul- ajzo deyiladi;  
3) adno bahrlar to'rt juzvli (ruknlili) bahrlar bo'lib, murabba' ul-ajzo deb nomlanadi. Aruz doiralari bu ruknlar, ulardagi cho'ziq va qisqa hijolar sonining tengligiga ko'ra o'zaro yaqin bo'lган bahrlarning guruhlashdirilgan aylanasi bo'lib, —arab filologiyasining otasi bahrlarning o'zlashtirilishini osonlashtirish maqsadida ushbu doiralarni kashf qilgan. Bunda bir-biriga yaqin bo'lган bahrlar bir misra she'r misolida bir doira ichida keltiriladi. Har qaysi doira qancha bahrni o'z ichiga olsa, shuncha bo'lakka bo'linadi va ularda shu bahrlarning ruknlari ham keltirib o'tiladi. Doira atrofida berilgan misrani birinchi so'zdan boshlab o'qilsa, bir bahr; ikkinchi so'zdan boshlab o'qilsa, ikkinchi bahr, uchinchi so'zdan boshlab o'qilsa, uchinchi bahr va shu tarzda nechta bahr jamlangan bo'lsa, barchasi kelib chiqadi. Doiralardan maqsad bahrlar orasidagi farq va umumiyligliki ochish hamda shu bilan birga ularni o'zlashtirish va she'r vaznlarini aniqlashni osonlashtirishdir. Doiralar bir-biriga yaqin bahrlardan tuzilishi zarur. Shu ma'noda forsiy va turkiy aruzda keng qo'llanilgan Hazaj, Rajaz va Ramal bahrlarini bir doiraga kiritish mumkin. Chunki ular tarkiban (mumtoz aruzshunoslikka ko'ra, vataj va sabablarning tengligi bo'yicha; zamonaviy aruzshunoslik asosida fikr yuritadigan bo'lsak, hijolar miqdori va sifatining o'xhashligiga ko'ra) bir xil asosga egadirlar.

Xulosa qilib aytganda, Taroziyning "Funun al-balogs'a" qo'lyozmasi ham Alisher Navoiyning " Mezon ul-avzon " asari ham ilm ahli tomonidan sinchkovlik va jiddiy tahlillar yordamida tadqiq etilsa, adabiyotshunoslik sahifalarini yangicha ilmiy izlanishlar bilan boyitishga xizmat qiladi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Valixo'jayev B. O'zbek adabiyotshunosligi tarixi (X-XIX asrlar). – T.: O'zbekiston, 1993.
2. Shayx Ahmad ibn Xudoydod Taroziy. Funun ul-balogs'a (Bodlian kutubxonasida saqlanuvchi Elliott № 127 raqamli qo'lyozma).
3. Shayx Ahmad ibn Xudoydod Taroziy. Funun ul-balogs'a. (—Balog'at ilmlari) / Mas'ul muharrir B. Hasanov / – T.: Xazina, 1996.
4. Alisher Navoiy. Mezon ul-avzon. TAT. 10 jiddlik. 10-jild. – T.: G'afur G'ulom nomidagi NMIU, 2011